

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

REGEL ITKUCHALASI, QORAQULOQ (*EMINIUM REGELII VVED. EX LAPIN*) O‘SIMLIGINING BIOMORFOLOGIK BELGILARI VA DORIVORLIK XUSUSIYATLARI

Abdullayeva Gulnoza Komiljonovna

Termiz davlat pedagogika instituti ”Biologiya va uni o‘qitish kafedrası” o‘qituvchisi

Ziyayev Farrux Abdusalim o‘g‘li

Termiz davlat pedagogika instituti, Biologiya ta’lim yo‘nalishi talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada kuchala o‘simligining bimorfologik xususiyatlari, dorivorlik xususiyatlari haqida yoritilgan. Kuchala (*Eminium regelii vved. Ex Lapin*) ning o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlaridan biri, o‘zidan badbo‘y hid tarqatishi va changlanishi ham o‘ziga xos xususiyatlari va dorivorligi haqida bayon qilingan.

Аннотация: В данной статье описаны биморфологические свойства и лечебные свойства растения Кучала. Одним из уникальных свойств Кучалы (*Eminium regelii vved. Ex Lapin*) является то, что она издает зловонный запах и опыляет, также описаны ее свойства и лечебные свойства.

Annotation: This article describes the bimorphological properties and medicinal properties of Kuchala plant. One of the unique properties of Kuchala (*Eminium regelii vved. Ex Lapin*) is that it emits a foul smell and pollinates, and its properties and medicinal properties have also been described.

Kalit so‘zlar: sapromafil, ekstrakt, Regel, testosteron, farmakologik, etanol.

Ключевые слова: сапромафил, экстракт, Регель, тестостерон, фармакологический препарат, этанол.

Key words: sapromafil, extract, Regel, testosterone, pharmacological, ethanol.

Respublikamiz shifobaxsh giyohlarga boy dior hisoblanadi. O‘zbekistonda 4000 dan ortiq yovvoyi o‘simliklar o‘sadi. Shulardan 100 dan ortig‘i tibbiyot amaliyotida dori vositasi hisoblanadi. Xalq tabobatida esa hududimiz o‘simliklaridan 600 ga yaqini dorivor hisoblanadi. Tibbiyotda va xalq tabobatida ishlatiladigan shifobaxsh o‘simliklar orasida tarkibida kuchli ta’sir etadigan zaharli kimyoviy birikmalar (alkaloidlar, glikozidlar va b.) saqlagan giyohlar mavjud. Ular qatoriga tibbiyot amaliyotida keng miqyosda ishlatib kelinayotgan fitopreparatlar manbai bo‘lgan kuchala hisoblanadi. Ushbu o‘simliklardan kuchli ta’sir etuvchi fitopreparatlar tayyorlanadi va olinadi (digitoksin, digoksin, adanizid, atropin, belladonna nastoykasi, allapinin, strixnin va b.)

Kuchala chayono‘t (*Arum korolkovii Rgl.*) — Ushbu o‘simlik kuchaladoshlar oilasiga mansub ko‘p yillik, zaharli o‘t. Bo‘yi 40—50 sm. Bargi shapaloq, uzun bandli. Barg bandining ostki qismi qin hosil qilib, poyani o‘raydi. Gullari ayrim jinsli, to‘pguli so‘tasimon.

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

Yuqori qismida changchi, quyida esa urug‘chi gullar joylashgan. Toshkent, Farg‘ona va Samarqand viloyatlarining tog‘ urmonlaridagi zax yerdarda o‘sadi. May oyida gullaydi, urug‘i iyunda pishadi. Tuguvagida saponin, kraxmal, mevasida karotinoid, likopin bor. Tugunagidan tayyorlangan tolqon xalq tabobatida ilon va chayon chaqqanda, kunjut moyiga qorilgan tolqonidan pishirilgan non bavosirni, asalga qorilgan Kuchala tolqoni esa pesni davolashda qo‘llanadi. Yanchilgan tugunagini unga qorib sichqon, kalamush va b. kemiruvchilarni zaharlaydigan xo‘rak tayyorlanadi;

A.korolkovi Rgl -Korolkov kuchalasi. Asosan soz tuproqda o‘sadi. Barg plastinkasi uchburchak yoki ponasimon shaklda. To‘pgulni o‘rab turuvchi bargning to‘pgulga qarab turgan ichki qismi oqish rangda. Mevasi qizil. Itkuchalada esa barg plastinkasi lansetsimon yoki uchburchak-lansetsimon, tubi ponasimon ingichkalashgan. O‘rama bargning to‘pgulga qarab turgan ichki tomoni to‘q binafsha rangli baxmalga o‘xshaydi. Mevasi esa oq.

Birinchi marta Eduard Avgust fon Regel tomonidan tasvirlangan. O‘rta Osiyo xalq tabobatida qadim zamonlardan beri tez-tez qo‘llaniladigan, hozir ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan dorivor o‘simliklardan biri *Arum korolkowii Regel* hisoblanadi. Xalqda bu dorivor o‘simlik kuchala deb ataladi. O‘simlik juda zaharli bo‘lib, xalq tabobatida inson kuchini oshirish uchun dorivor xom ashyo sifatida kichik dozadagi damlamasi qo‘llaniladi. Bu o‘simlikning shifobaxsh xususiyatlari Avitsenna asarlarida, shuningdek, qirg‘iz xalq dostonlari “Manas” va “Semeteyda” tilga olingan.

Kuchala o‘simligini ochlishga ulgurmagan bir tupini piyoz boshi bilan birgalikda olib keldim va suvga solib qo‘ydim. 2 yoki 3 kun o‘tgandan so‘ng o‘sha tupdagi gul ochildi. O‘zidan juda sassiqlik va qo‘lansa hid tarqatayotgan edi. Undan ajralayotgan hid kuzatishga borgan vaqtimdagi hiddan ancha farq qilar edi. Kuchala o‘simligi sapromofil qopqon gul bo‘lib, uni changlatishga kelgan pashshalarni pixlari yordamida tutib qolib chang donachalarini tarqatishda foydalanadi.

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Botanika M.I.Ikromov , X. N. Normurodov ,A.S.Yuldashev
2. O‘zbekiston o‘simliklar aniqlagichi A. Xamidov M. Nabiyev T. Odilov.
3. O‘zbekistonning shifobaxsho‘simliklariQ.Hojimatov
4. O‘simliklaraniqlagichI.F.Sulaymonov ,X.Q.Haydarov , M.A.Hasanov, X.H.Jalov ,Y.SH.Toshpulatov ,Z.I.Umurzakov ,A.Q.Axmedov ,A.I. Rajabov
5. <https://en.m.wikipedia.org/wiki/Arum>
6. Haqberdiyeva S. T. Improving the Teaching Methods of Biology in General Secondary Schools on the Basis of A Competency-based Approach //Academicia Globe. – 2022. – T. 3. – №. 03. – C. 132-136.
7. Hayitov A. E., Aslanova X. G. USE OF STUDENTS'LOGICAL THINKING ELEMENTS IN TEACHING ZOOLOGY IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS //Journal of Universal Science Research. – 2023. – T. 1. – №. 10. – C. 166-169.
8. Abdullaeva G. K. A COMPARATIVE STUDY OF THE DISTRIBUTION OF CYANOPROKARYOTES AND ALGAE IN SOILS //Journal of Universal Science Research. – 2023. – T. 1. – №. 10. – C. 67-71.